

DOI: 10.5281/zenodo.15695510

Link: <https://zenodo.org/records/15695510>

HUDUDIY O'SISH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR: NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY JIHATLAR

Malika Sharipova Maxmudjon qizi

"Iqtisodiyot" kafedrasи assistenti

"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM

Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Do'stlik ko'chasi 45-uy

msharipova928@gmail.com

+998914756570

Annotatsiya: Maqola hududiy o'sish jarayonlarini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, jozibadorlik nazariyasi, markaziy joylar nazariyasi, aglomeratsiya iqtisodiyoti va mehnat-kapital oqimlari asosida hududlararo tafovutlarning shakllanish mexanizmlarini yoritadi. Unda transport infratuzilmasining hududiy zichlik va sanoat ixtisoslashuviga ta'siri, shuningdek, institutsional va tarixiy omillarning shaharlar rivojiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot hududiy integratsiya, innovatsion markazlashuv va iqtisodiy muvozanatning shakllanish omillarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hududiy o'sish, shaharlar rivojlanishi, iqtisodiy tafovut, aglomeratsiya, mehnat migratsiyasi, kapital oqimi, hududiy siyosat, infratuzilma, institutsional omillar, iqtisodiy markazlar

I. KIRISH

O'zbekiston Respublikasida hududiy barqarorlikni ta'minlash hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish masalasi bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, pandemiyadan keyingi global iqtisodiy muhitdagi keskin o'zgarishlar hududlararo tengsizlikni bartaraf etish va hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Shu munosabat bilan, 2025-yil 1-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-132-sonli qarori, "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi qaror ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni shakllantirishda muhim strategik bosqich bo'lib xizmat qilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan "**Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi**" haqida Prezident farmoni, **PF-60-son** qabul qilinib, u mamlakatning uzoq muddatli makro strategiyasini belgilab berdi. Farmon mamlakat bo'ylab infratuzilmaviy yangilanishlarni, investitsion muhitni mustahkamlashni, adolatli ijtimoiy siyosatni va inson kapitalini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Xususan, transport va logistika sektorini 60 % elektrorashtirish, tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish kabi yirik maqsadlar orqali hududiy integratsiya kuchaytiriladi.

Ushbu maqola mazmunan davlatning hududiy rivojlanish siyosatini chuqur tahlil qilishga, mavjud institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholashga va hududiy integratsiya darajasini oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ilmiy-amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, tadqiqot milliy taraqqiyot strategiyasining hududiy komponentlarini puxta o'rganishga qaratilgan dolzarb va nazariy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hududiy rivojlanish - bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki institutsional barqarorlik, resurslarning adolatli taqsimoti va aholining sifatli hayot kechirishi uchun zarur infratuzilmaning shakllanishi bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayondir. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, sanoatning hududiy muvozanatini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda.

Mazkur maqola hududiy o'sish masalasiga kompleks yondashadi. Nazariy jihatdan, shahar va hududlar o'sishini izohlovchi klassik va zamonaviy konsepsiylar – jumladan, markaziy joylar nazariyasi, jozibadorlik modeli, aglomeratsiya iqtisodiyoti hamda kuchayuvchi tafovutlar nazariyasi - O'zbekiston sharoitiga nisbatan o'r ganib chiqiladi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba, xususan Avstraliya misolida tahlil qilingan institutsional mexanizmlar orqali iqtisodiy markazlashuv va chekka hududlar o'sishi o'rtasidagi murakkab dinamikaga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini mamlakatda olib borilayotgan hududiy rivojlanish siyosatidagi konseptual tamoyillar tashkil etadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi samaradorligi, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining hududiy integratsiyaga ta'siri, kapital va mehnat oqimlarining joylashuvga nisbatan o'zgarishi, shuningdek, davlat-hususiy sheriklik modeli orqali mintaqaviy investitsiyalarni rag'batlantirish masalalari chuqur tahlil qilinadi.

Mazkur maqola hududiy taraqqiyotning nazariy va amaliy asoslarini uyg'unlashtirishga, O'zbekiston sharoitida mintaqaviy siyosatning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, tadqiqot nafaqat nazariy ahamiyatga, balki milliy iqtisodiy strategiyani shakllantirishda amaliy qiymatga ham ega.

II. ASOSIY QISM

Iqtisodiy o'sish - bu ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiyligi real qiymatining ortishini anglatadi. Bu jarayon odatda boshqa asosiy iqtisodiy agregatlarning, masalan, iste'mol, bandlik, daromad va kapital o'sishi bilan birga kechadi.

Hozirda mintaqaviy iqtisodiy o'sishni har tomonlama tushuntirib beruvchi yagona umumiyligi nazariya mavjud emas. Shunga qaramay, mavjud bo'lgan qator qisman nazariyalar va tushunchalar mintaqaviy o'sishning ayrim asosiy determinantlariga qaratilgan. Bu nazariy yondashuvlar, odatda, mintaqaviy o'sishga ta'sir qiluvchi bir yoki bir nechta omillarni tahlil qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy o'sishni belgilovchi omillar majmuasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: tabiiy resurslar, mehnat resurslari, kapital va investitsiyalar, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, texnologik rivojlanish, sanoat tarkibi va hajmi, eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlari, milliy va global iqtisodiy sharoitlar, markaziy hukumat xarajatlari, ijtimoiy-siyosiy tizim barqarorligi;

Ushbu omillar o'zaro murakkab aloqadorlikda bo'lib, mintaqaviy o'sish jarayonining shakllanishi va dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mintaqaviy o'sishni quyidagi funksional ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\text{Mintaqaviy o'sish} = F$$

(resurslar, kapital, texnologiya, infratuzilma, eksport salohiyati, iqtisodiy muhit, siyosiy barqarorlik, davlat siyosati)

Neoklassik modellar. Neoklassik modellar mintaqaviy iqtisodiy tahlil jarayonida keng qo'llaniladi. Biroq, ushbu yondashuvlarning asosiy farazlari mintaqaviy iqtisodiyot sharoitlariga to'liq mos kelmaydi, chunki ular fazoviy o'lchovning kiritilishini nazarda tutmaydi. Ya'ni, bu modellar iqtisodiy o'sishni tushuntirishda hududlararo farqlarga yetarli e'tibor bermaydi.

Shunga qaramay, neoklassik modellar mintaqaviy iqtisodchilar e'tiborini ikki asosiy sababga ko'ra o'ziga tortgan:

Bu modellar omillari harakatchanligini (kapital va mehnat oqimini) nazariy jihatdan o'z ichiga olgan bo'lib, iqtisodiy o'sishning assosiy mexanizmlarini tushuntiradi. Ular bashoratli xususiyatga ega bo'lib, turli hududlarda iqtisodiy dinamikani taxmin qilish imkonini beradi.

Neoklassik modellarga ko'ra, iqtisodiy muvozanatga erishish uchun kapital yuqori ish haqi mavjud bo'lgan hududlardan past ish haqli hududlarga oqib o'tishi kerak. Bunday harakat kapitaldan yuqori daromad olish imkoniyati bilan izohlanadi. Ayni paytda, mehnat resurslari kapital oqimi yo'nalishiga qarama-qarshi ravishda harakatlanadi. Bu jarayon mehnat va kapitalning omil daromadlari tenglashguncha davom etadi.

Ushbu modellar bashorat qilishicha, past ish haqi va past daromadli hududlar tezroq o'sish sur'atlariga ega bo'ladi. Bu esa kapitalning intensiv to'planishi va ish haqining yuqoriroq o'sishini ta'minlaydi. Natijada, uzoq muddatda aholi jon boshiga daromadlar mintaqalar o'rtasida yaqinlashshadi. Bu hodisa mintaqaviy konvergentsiya (yaqinlashuv) deb ataladi va neoklassik modellar tomonidan nazariy asosda taklif etiladi.

Mintaqaviy neoklassik modellar bo'yicha olib borilgan sinovlarning aksariyati **bilvosita xarakterga ega**, ya'ni ular asosan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar hududlar o'rtasida yaqinlashayotgan-yaqinlashmayotganini tahlil qilish bilan cheklanadi. Biroq, ushbu turdag'i empirik tekshiruvlarning natijalari ko'plab hollarda **aniq xulosa berishga imkon bermagan** va ko'p jihatdan **natijasiz** bo'lgan.

Bundan tashqari, neoklassik modellar bo'yicha bir qator **nazariy tanqidlar** mavjud. Eng asosiy e'tiroz shundaki, bu modellar hududiy iqtisodiyotlarning o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olmaydi. Ya'ni, ular makoniylari (fazoviy) tafovutlarni tushuntirishda yetarli emas va hududlararo iqtisodiy farqlarning sabablari to'g'risida aniq ma'lumot bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, **mintaqaviy iqtisodiy tahlil** ko'proq e'tibor berilishi lozim bo'lgan muhim omillarni ilgari suradi. Jumladan:

- **transport xarajatlari,**
- **joylashuv qarorlarining o'zaro bog'liqligi,**
- **agglomeratsiya iqtisodiyoti** (resurslar va korxonalar zinch joylashgan joylarda samaradorlikning oshishi),
- **urbanizatsiya jarayonlari,**
- **metropolitan va mintaqaviy hududlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar.**

Eksport bazasi nazariyasi va uning mintaqaviy o'sishga ta'siri. Mintaqaviy daromadlar dinamikasini tushuntirishda eksport bazasi (yoki iqtisodiy asos) modellaridan foydalilaniladi. Ushbu yondashuv qisqa muddatli iqtisodiy harakatlarni tahlil qilishda qo'llaniladi, shuningdek, mintaqaning eksport hajmi bilan uning umumiyligi iqtisodiy o'sishi o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi.

Eng sodda ko'rinishda, eksport bazasi nazariyasi mintaqaning iqtisodiy o'sishi asosan uning eksport tarmoqlarining rivojlanishiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa o'z navbatida mintaqadan tashqaridagi talabning kengayishi bilan izohlanadi. Shu boisdan, mintaqaviy o'sishni boshlovchi va uni harakatlantiruvchi asosiy omil sifatida tashqi talab e'tirof etiladi.

Mazkur nazariyaning bir qancha muhim xulosalari mavjud:

1. Eksportning ustuvor roli: Eksport yagona ekzogen (tashqi) omil sifatida ko'rilib. Boshqa barcha avtonom talab omillari – masalan, investitsiya darajasi, davlat xarajatlarining o'zgarishi yoki iste'moldagi siljishlar – tahlil doirasidan chetda qoladi.

2. Tashqi talabning manbai inkor etiladi: Nazariya eksport hajmining oshishiga sabab bo'layotgan talabning qayerdan kelayotganiga e'tibor bermaydi. Ya'ni, bu talab qo'shni mintaqadanmi yoki global bozorning boshqa qismlaridan keladimi – bu muhim emas deb qaraladi. Natijada, mintaqalararo iqtisodiy bog'liqliklar va o'zaro ta'sirlar nazariyada inobatga olinmaydi.

3. Ichki talabning rolini kamaytiradi: Eksport bazasi modeli mintaqaning o'sish potentsialini faqat tashqi omillar orqali baholaydi. Biroq, iqtisodiy o'sish ichki talab, investitsiyalar va davlat siyosati kabi endogen omillarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunga qaramay, ushbu nazariya foydalidir. U mintaqaviy o'sish jarayonlarini tahlil qilishda tashqi omillarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimligini ta'kidlaydi. Biroq, eksport bazasi yondashuvi mintaqaviy o'sishni tushuntiruvchi kompleks nazariya sifatida qaralishi mumkin emas, chunki u faqat bitta omil – eksport bozoriga urg'u beradi.

Shift va ulush (Shift-Share) tahlili. Mintaqaning iqtisodiy o'sish salohiyatini baholashda keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri bu Shift va ulush (shift-share) tahlilidir (Stilvel, 1969; Stilvel, 1970; Ker, 1970). Bu usul mintaqaviy o'sishni chuqurroq tushunishga yordam beradigan tahliliy vosita bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri nazariy konsepsiyanidan ko'ra, amaliy hisoblash metodikasi sifatida shakllangan. Shift-share tahlili yordamida har bir sanoat tarmog'i uchun mintaqaning o'sishi milliy yoki davlat miqyosidagi o'sish bilan solishtiriladi va shu orqali tarmoqning mintaqaviy iqtisodiyotga qo'shgan nisbiy hissasi aniqlanadi.

Ushbu yondashuv, odatda bandlik ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi va mintaqadagi o'sish sur'atlarining milliy ko'rsatkichlardan qanday farq qilishini tushuntirishga xizmat qiladi. Metodologiya doirasida mintaqaviy o'sishni quyidagi uchta asosiy komponentga ajratish mumkin:

- Milliy ulush komponenti (National Growth Effect): Bu komponent mintaqaning umumiyligi bandlik darajasi milliy darajadagi umumiyligi o'sish sur'atlariga mos tarzda o'zgargan deb faraz qilingandagi bandlik o'zgarishini aks ettiradi. Ya'ni,

mintaqa milliy o'sish sur'atlariga to'liq mos bo'lsa, u holda qanday bandlik ko'rsatkichi shakllanishi mumkin edi – ana shu ko'rsatkich hisoblanadi.

- Tarmoq tarkibi komponenti (Industrial Mix Effect): Shuningdek, bu proporsionallik siljishi yoki sanoat aralashmasi ta'siri deb ham ataladi. Ushbu komponent mintaqada mavjud sanoat tarmoqlarining milliy miqyosda qanday o'sish sur'atlariga ega ekanligiga asoslanadi. Agar mintaqqa milliy miqyosda tez o'sayotgan sanoat tarmoqlariga ko'proq ixtisoslashgan bo'lsa, u holda ushbu komponent ijobjiy bo'ladi. Aksincha, sekin o'sayotgan yoki pasayib borayotgan tarmoqlarga ixtisoslashgan bo'lsa, u salbiy bo'lishi mumkin.

- Differensial siljish (Regional Growth Effect): Uchinchidan, differensial siljish (yoki mintaqaviy o'sish effekti) – bu komponent mintaqadagi har bir sanoatning milliy o'sish sur'atlariga nisbatan qanday o'zgarayotganini aks ettiradi. Ya'ni, bu ko'rsatkich mintaqadagi tarmoqlar milliy o'rtacha ko'rsatkichlardan tezroq yoki sekinroq o'sayotganini aniqlash orqali, mintaqaning o'ziga xos raqobat ustunligini yoki zaifligini ko'rsatadi.

Agar mintaqadagi bandlik o'sishi shu sanoatning milliy o'sish sur'atidan tezroq bo'lsa, u holda ijobjiy differensial siljish yuzaga keladi. Aksincha, agar mintaqqa shu tarmoqda milliy o'sishdan sekinroq sur'atda rivojlanayotgan bo'lsa, u holda salbiy differensial siljish mavjud deb hisoblanadi.

Bu komponent mutanosiblik (sanoat aralashmasi) effektidan farq qiladi, chunki u milliy darajadagi tez yoki sekin rivojlanayotgan sanoatlarning o'ziga emas, balki mintaqaning aynan shu tarmoqlardagi nisbiy ishlashiga e'tibor qaratadi. Shunday qilib, ushbu ikki komponent alohida hodisalarini ifodalaydi:

Mutanosiblik (proporsionallik) ta'siri - mintaqaning qaysi sanoatlarga ixtisoslashgani va bu tarmoqlar milliy miqyosda qanday rivojlanayotganiga asoslanadi. Bu yerda asosan taklif tomonidagi omillar (masalan, resurslar samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar) va daromad elastikligi orqali talabdagi o'zgarishlar hisobga olinadi.

Differensial o'sish effekti esa - aynan shu sanoat tarmoqlari ichida mintaqaning raqobatbardoshligi yoki zaifligi bilan bog'liq. Bu ustunliklar vaqt o'tishi bilan vujudga kelishi va geografik joylashuv, bozorga yaqinlik, infratuzilma sifati, malakali ishchi kuchi, ilmiy-ma'lumot bazasiga kirish kabi omillar bilan izohlanadi.

Agar mintaqaviy o'sish faqat sanoat aralashmasiga bog'liq deb hisoblansa, u holda proporsionallik komponenti asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo ko'plab hollarda mintaqaviy raqobat ustunliklari muhim rol o'ynaydi, va bu holda differensial siljish tahlil uchun markaziy o'rinni egallaydi.

O'sish markazi nazariyasi. Richaqardson (1973-yil) ta'kidlaganidek, mintaqaviy o'sishni tahlil qilish har qanday nazariya uchun makon va masofa tushunchalarini aniq kiritishdan boshlanishi lozim. Bu masofa, bir tomonidan, mintaqalararo tizimda hududlar orasidagi fazoviy ajralishni, ikkinchi tomonidan esa, hududlar ichidagi fazoviy tabaqlanishni o'z ichiga oladi.

Bu nuqtai nazardan kelib chiqib, Richardson o'sish qutblari tushunchasidan foydalanadi. Ularni aholining fazoviy aglomeratsiyasi va iqtisodiy faoliyatning kontsentratsiyasi mavjud bo'lgan joylar sifatida talqin qiladi. Masalan, poytaxt

shaharlar yoki viloyat markazlari - bu o'sish qutblarining tipik namunalari bo'lib, ular iqtisodiy o'sishni sur'atlantiradigan xizmatlar va faoliyatlar jamlanmasiga ega.

Mavhumlik va kamchiliklarga qaramay, o'sish markazi nazariyasi mintaqaviy o'sishga ta'sir qiluvchi omillarni tushunishda yaxshi tahliliy imkoniyatlar beradi. Ayniqsa, bu nazariya Avstraliyaning mintaqaviy siyosatida muhim o'rinni tutadi, chunki u rivojlanish markazlariga strategik e'tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

Avstraliyada shaharlarning o'sishini belgilovchi omillar. Avstraliyadagi urbanizatsiya jarayonlarini tushuntirishga qaratilgan 5 ta asosiy yondashuv mavjud. Shulardan biri - **iqtisodiy asoslar nazariyasi**. Bu nazariya shaharlarning o'sishini tashqi bozorlarga bo'lgan talab bilan bog'laydi. Boshqacha aytganda, **shahar chegarasidan tashqariga eksport qilinadigan tovar va xizmatlar miqdori** shahar o'sishining asosiy omili sifatida qaraladi. Bu yondashuvda iqtisodiy faoliyat ikki turga ajratiladi:

- **Asosiy (eksport yo'naltirilgan) faoliyatlar** – shaharga tashqaridan daromad keltiradi;
- **Mahalliy (ichki yo'naltirilgan) faoliyatlar** – aholi va korxonalarining ichki ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Shahar o'sishining izchil bo'lishi uchun eksport faoliyati va mahalliy xizmatlar o'rtasidagi **muvozanat va o'zaro bog'liqlik** muhim ahamiyat kasb etadi. Shahar bazasi nazariyasiga bir qator tanqidlar mavjud:

- **Eksportning ustuvorligi masalasi.** Shaharlar faqat eksport orqali emas, balki boshqa manbalar hisobidan ham o'sishi mumkin, masalan: Avtonom davlat xarajatlari (budgetdan moliyalashtiriladigan dasturlar, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash).

- **Ichki iqtisodiy ta'sirlar** yetaricha hisobga olinmagan. Mahalliy iste'mol, davlat xarajatlari va ichki xizmatlarning o'sishi ham muhim rol o'ynaydi.

- **Shaharlararo va mintaqalararo bog'liqlik** e'tibordan chetda qolgan. Ya'ni, iqtisodiy o'sish ko'pincha shaharning o'zidan tashqaridagi faoliyatlar bilan bevosa bog'liq.

- **Avstraliya kontekstidagi maxsus muammo:** Ko'plab eksport mahsulotlari (masalan, tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi) shaharning o'zida emas, uning atrofidagi mintaqalarda ishlab chiqariladi, biroq ular **shahar portlari orqali eksport qilinadi**. Bu esa shahar eksportining real manbasini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin.

Shahar hajmining o'sish sur'atlariga ta'siri: **aglomeratsiya iqtisodiyotlari doirasida tahlil**. Urbanizatsiya jarayonlarini tushuntiruvchi nisbatan keng tarqalgan qarashlardan biri bu - shaharning hajmi uning o'sish sur'atlari uchun asosiy aniqlovchi omil hisoblanishidir. Mazkur yondashuvga ko'ra, shahar o'sishi ma'lum bir minimal chegarani bosib o'tmaguncha sust kechadi, ammo ushbu chegaradan richerd o'sish tezlashib, o'z-o'zini kuchaytiruvchi tus oladi. Bu chegaraviy nuqta, odatda, aholi soni, hududiy daromad darajasi yoki yalpi hududiy mahsulot kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanishi mumkin.

Yirik shaharlarning kichik shaharlarga nisbatan tezroq va intensivroq o'sish sur'atlariga ega bo'lishining bir qancha asosli sabablari mavjud. Avvalo, katta

shaharlarda mavjud bo‘lgan **ijtimoiy infratuzilmalar**, masalan, jamoat transporti tizimi, avtomobil yo‘llari, kanalizatsiya tarmoqlari, elektr ta’minoti, ulardan samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Shu bilan birga, katta shahar markazlarida kengroq **mahalliy bozorlar** shakllanadi, bu esa iqtisodiy almashinuv va sarmoya oqimini jadallashtiradi.

Ikkinchidan, metropoliten hududlarda **ishchi kuchi zaxirasi va kapital bozorlari** yanada rivojlangan bo‘lib, bu holat innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi. Uchinchidan, dastlabki afzalliklardan foydalangan holda, yirik shaharlar muayyan iqtisodiy sohalarda ixtisoslashib, ushbu sohalarda monopol holatni egallashi mumkin. Bu omillar yig‘indisi **mahalliylashtirish (lokalizatsiya) iqtisodiyotlari** yoki **tashqi iqtisodiy samaradorliklar** sifatida ta’riflanadi.

Biroq, bu jarayonlarni **urbanizatsiya iqtisodiyotlari** (urban economies of scale) deb ataluvchi boshqa omillardan farqlash lozim. Ular shaharlar tomonidan taqdim etiladigan davlat xizmatlari, xususiy sektor faoliyati, madaniy va ijtimoiy infratuzilma (masalan, teatrlar, kutubxonalar, sport inshootlari) orqali ta’minlanadi.

Umuman olganda, aglomeratsiya effektlari - ya’ni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali - shaharlarning o’sishiga kuchli turtki beradi. Shunga qaramasdan, **aglomeratsiya ta’sirini miqdoriy baholash** jarayonida sezilarli muammolar yuzaga chiqadi. Sababi, ushbu ta’sirlarning qanday aniqlanishi, ularni o‘lhash metodologiyasi borasida iqtisodchilar o’rtasida bir to‘xtamga keltingan emas.

Masalan, Richardson (1973) aglomeratsiya iqtisodiyotlarini tahlil qilishda aholi soni, sanoat o’sish sur’atlari, ijara stavkalari hamda transport infratuzilmasining miqdoriy ko‘rsatkichlarini tavsiya etadi. Biroq, ularning hech biri aglomeratsiya samaralarini to‘laqonli ifodalash uchun yetarli emas deb hisoblanadi. Shuning uchun Richardson ushbu iqtisodiy ta’sirlarni faqatgina **maishiy va sanoat aglomeratsiyasining ijtimoiy ta’sirlarini ajratish orqali** tahlil qilish mumkin, degan xulosaga keladi.

Markaziy joy nazariyasi doirasida shahar o’sishini izohlash. Shaharlarning iqtisodiy o’sishi atrofidagi qishloq hududlari (ya’ni xizmat ko‘rsatish maydonlari) uchun tovar va xizmatlar taqdim etilishi orqali amalga oshadi, deb ta’kidlash mumkin. Ushbu yondashuv iqtisodiy geografiyada markaziy joy nazariyasi sifatida tanilgan. Garchi mazkur nazariya mintaqaviy o’sish nazariyasi doirasiga to‘liq kirmasa-da, u shaharlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning hududiy (fazoviy) taqsimotini tushuntirishda samarali vosita sifatida qo’llaniladi.

Qisqacha aytganda, markaziy joy nazariyasi shahar markazining kengayishi bevosita uning atrofidagi qishloq hududlari (xizmat ko‘rsatish zonasasi) hajmi va bu hududdagi aholi daromadlari darajasiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, yirik shaharlar faqat keng ommaga mo‘ljallangan mahsulotlar bilan emas, balki tor doiradagi xizmatlar bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Biroq ushbu nazariya ichki iqtisodiy o’sish omillarini yoki mintaqalararo savdo aloqalarini to‘liq qamrab olmaydi. Shuning uchun u shaharlarning barqaror rivojlanish manbalarini to‘liq izohlab berolmaydi.

Shunga qaramay, markaziy joy nazariyasi turli mintaqaviy markazlar yoki davlat poytaxtlari o'rtasida kuzatiladigan iqtisodiy o'sish sur'atlari farqlarni tushuntirishga muayyan hissa qo'shadi. Masalan, **MakKarti (1970)** davlat markazlarining kattaligi va ularning iqtisodiy o'sish sur'atlari bevosita joylashgan qishloq hududlarining iqtisodiy salohiyati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, shaharlarning savdo, transport, moliya va xizmat ko'rsatish sohalarida ustunlik qilish salohiyati, shuningdek, ularning davlat yoki milliy iqtisodiy tizimdagagi ishlab chiqarish, boshqaruv va boshqa funksiyalardagi roli ham muhim hisoblanadi.

MakKarti, masalan, Melburn va Sidney shaharlарining tez o'sishini ularning katta va samarali xizmat ko'rsatish hududlariga egaligi hamda ularga teng raqobatchi shaharlarning mavjud emasligi bilan izohlaydi. Aksincha, Hobart shahrining sust rivojlanishini esa uning kichik va iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan xizmat hududiga egaligi bilan bog'laydi.

Garchi markaziy joy nazariyasi shahar o'sishini tushuntirishda qisman foydali bo'lsa-da, uning muhim cheklovlaridan biri shundaki, u **urbanizatsiya jarayonidagi sabab va oqibatlarni aniq ajratish imkonini bermaydi**. Ya'ni, qishloq hududlarining iqtisodiy o'sishi ularning markaziy shaharlari hajmi va imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, markaziy shaharlarning rivojlanishi ham qishloq zonalarining ko'lamiga tayanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Avstraliya misolida shaharlар ko'pincha qishloq hududlari rivojlanishidan ilgari tashkil topgan (Glynn, 1975). Bu esa sabab va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni murakkablashtiradi va ularni qat'iy ajratishni imkonsiz holga keltiradi.

Jozibadorlik nazariyasi. Hozirgacha ko'rib chiqilgan shahar o'sishi nazariyalarining aksariyati talabga yo'naltirilgan deb hisoblanadi. Biroq, agar masalaga uzoq muddatli nuqtai nazardan yondashilsa, shaharning o'sish salohiyati eksport savdosи hajmi bilan emas, balki mehnat migratsiyasi va kapital oqimi kabi omillar bilan kuchliroq bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois, shaharlarning o'sishini ularning tashqi resurslarni - ya'ni mehnat, kapital va boshqa iqtisodiy resurslarni -jalb qilish qobiliyati orqali izohlaydigan yondashuvga ehtiyoj mavjud.

Neoklassik iqtisodiy nazariya bu jarayonni resurslar oqimining narxlar farqiga nisbatan berilgan iqtisodiy javob sifatida talqin qiladi. Ya'ni, eng tez o'sayotgan hududlar bu - mehnat va kapital daromadlari eng yuqori bo'lgan joylardir. Shunga ko'ra, mazkur hududlarga investitsiyalar va ishchi kuchi oqimi kuchayadi.

Biroq, bu yondashuvni to'liq asoslash qiyin, chunki Avstraliya misolida kapital oqimining qanday shakllanishini aniq ko'rsatuvchi statistik ma'lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari, qishloq hududlaridan shaharlarga bo'lgan migratsiyani faqat ish haqi farqlari bilan tushuntirish ham yetarli emas. Migratsion qarorlar ko'pincha turmush sharoitlari, ijtimoiy infratuzilma sifati, ta'lim va sog'liqni saqlash imkoniyatlari kabi omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Neoklassik yondashuv iqtisodiy bo'lmagan omillarning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Masalan, Richardson (1973-yil) shuni taklif qiladiki, odamlarning migratsion qarorlariga do'stlar va qarindoshlardan iborat ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini aniqlash va uni modellashtirish uchun maxsus yondashuvlar

ishlab chiqilishi lozim. Yirik shaharlarda ko‘p hollarda rivojlangan mehnat bozorlari mavjud bo‘lib, bu kengroq ish imkoniyatlari orqali mehnat muhoxirlarini jalg etadi. Bundan tashqari, metropoliten hududlar turli ijtimoiy, madaniy va dam olish infratuzilmalari bilan ta’minlangan bo‘lib, bu esa ishbilarmonlar, olimlar va boshqa professional kadrlarni boshqa hududlardan o‘ziga jalg qilishga xizmat qiladi.

Yirik shaharlar, ayniqsa metropollar, xorijiy investorlar uchun ham jozibali hisoblanadi. Godall (1972) ta’kidlaganidek, bunday hududlarga kirish orqali yirik iste’mol bozorlaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsion xavflarni kamaytiradi.

Shuningdek, yirik shaharlarda innovatsiyalarni ilgari suruvchi muhim markazlar shakllanadi. Shu sababli, ta’mnot tomoniga asoslangan nazariyalar yirik shaharlarda o’sishning o‘z-o‘zidan yuzaga kelish tendensiyasini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, aglomeratsiya iqtisodiyotlari doirasida bunday shaharlar tashqi resurslarni jalg etishda va qo’shimcha o’sish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim ustunliklarga ega bo‘ladi.

Nazariy yondashuvlarning sintezi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan har bir nazariya Avstraliyadagi shaharlarning o’sish jarayonini faqat qisman tushuntiradi. Har bir nazariyada muhokama qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va fazoviy omillarga qo’shimcha ravishda, tarixiy va institutsional omillar ham mavjud bo‘lib, ular shaharlarning shakllanishi va o’sishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu omillarni birgalikda ko‘rib chiqish orqali Avstraliya shaharlarining o’sish jarayonini to‘liq va kompleks tarzda tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Avstraliyada urbanizatsiya jarayoni, ko‘plab boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, qishloq joylarning rivojlanishidan oldin boshlangan. Bu holat boshqa yirik aholi punktlarining rivojlanishini cheklab, davlat poytaxtlarining markaziy rolini kuchaytirgan. Federal siyosiy tuzilma esa, biror poytaxtning butun mamlakat miqyosida hukmronlik qilishiga yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa-da, har bir poytaxt shaharning o‘z shtati doirasida ustun mavqega ega bo‘lishiga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, metropolitandan tashqarida joylashgan ayrim nometropolitan markazlar bugungi kunda aholining ortib borayotgan ulushiga ega bo‘lib, ahamiyat kasb etmoqda.

Shahar o’sishida transport texnologiyasining ham muhim roli bo‘lgan. Avstraliya aholisi kam zinchlikda tarqalganligi sababli, asosiy metropollar tez orada temir yo‘l tugunlariga aylangan. Temir yo‘lning asosiy transport vositasi sifatida faoliyat yuritishi natijasida, sanoat va aholi ushbu transport markazlari atrofida jamlangan. Transport infratuzilmasining fazoviy qattiqligi (inflexibility) esa shaharlarning joylashuvi va rivojlanish trayektoriyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Ehtimollik sintezi. Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlarning har biri Avstraliyadagi shaharlarning o'sish jarayonini qisman ifodalaydi. Har bir nazariya o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy omillarga urg'u berishi bilan birga, ularning har biri bilan bog'liq tarixiy va institutsional omillar mavjud bo'lib, shaharlarning o'sishini tushuntirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni integratsiyalashgan holda tahlil qilish orqali Avstraliya shaharlarining o'sish jarayonini to'liq va kompleks tarzda izohlash mumkin.

Avstraliyada urbanizatsiya, boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, qishloq aholi punktlari rivojlanishidan oldin boshlangan. Bu holat, o'z navbatida, metropolitandan tashqari joylashgan boshqa yirik aholi punktlarining rivojlanishini cheklab, davlat poytaxtlari bilan samarali raqobat olib borishga imkon bermagan. Shuningdek, mamlakatning federal siyosiy tuzilmasi biror poytaxt shaharning milliy miqyosda to'liq hukmronlik qilishiga yo'l qo'yagan bo'lsa-da, har bir metropoliya o'z shtati doirasida ustun mavqega ega bo'lishini ta'minlagan.

Biroq, qayd etilganidek, metropolitandan tashqarida joylashgan ayrim shahar markazlari so'nggi yillarda aholi ulushi jihatidan sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Transport texnologiyasining rivojlanishi Avstraliya shaharlarining o'sishiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Aholining metropoliten hududlaridan tashqarida kam zichlikda tarqalganligi sababli, mavjud metropollar temir yo'l tugunlariga aylangan. Temir yo'llar asosiy transport vositasi sifatida faoliyat yuritgan bir paytda, sanoat korxonalari va aholi punktlari ana shu tugunlar atrofida shakllangan. Temir yo'l transportining fazoviy moslashuvchanligi (ya'ni, geografik joylashuvga nisbatan egiluvchanligi) esa markazlashuv tendensiyasini kuchaytirgan va urbanizatsiya jarayonini tezlashtirgan.

Urbanizatsiya va metropollarning rivojlanish tendensiyasi. Zamonaviy rivojlangan jamiyat shunday shakllanganki, mehnat resurslari va kapital oqimi, odatda, yirik shaharlar tomon yo'naltiriladi. Bu holat mazkur hududlarda mehnat va kapitalning miqdoriy hamda sifat jihatdan ortishiga olib keladi va, natijada, urbanizatsiya jarayonini kuchaytiradi. Ayniqsa, Sidney va Melburn kabi megapolislarning boshqa davlat poytaxtlariga va shahar atrofi hududlariga nisbatan tezroq rivojlanishini ushbu omillar bilan izohlash mumkin.

So'nggi yillarda Sidney va Melburnning boshqa yirik poytaxtlarga nisbatan nisbiy ustunligi pasaygan bo'lishiga qaramay, ushbu metropoliten markazlar sanoat ixtisoslashuvi nuqtayi nazaridan hali ham muhim iqtisodiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, bu shaharlar mamlakat iqtisodiy o'sishining ortib borayotgan ulushini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi.

Mirdal tomonidan ilgari surilgan nazariya - ya'ni iqtisodiy kuchlarning bir hududda to'planishi boshqa hududlar hisobiga ustunlik yaratishi (kuchaytiruvchi va susaytiruvchi ta'sirlar) - metropoliten markazlarning sanoatga yo'naltirilgan hukmronligining davom etishini izohlash uchun dolzarbdir. Bu ustunlik, o'z navbatida, sanoat ixtisoslashuvi va metropollar bilan chambarchas bog'liq bo'lган aglomeratsiya iqtisodiyotlari (ya'ni, ichki iqtisodiy afzalliklar, tashqi iqtisodiy effektlar va urbanizatsiyaviy ustunliklar) orqali mustahkamlanadi. Ushbu faktorlar shaharlarning tezroq o'sish sur'atlariga ega bo'lishini qisman izohlab beradi.

III. NATIJALAR

Tadqiqot davomida hududiy o'sish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinari ekan, turli nazariy yondashuvlar — jumladan, jozibadorlik nazariyasi, markaziy joy nazariyasi, mehnat va kapital oqimlariga asoslangan yondashuvlar hamda aglomeratsiya iqtisodiyoti kabi konseptual asoslar tahlil qilindi. Ushbu nazariyalar shuni ko'rsatadi, yirik shaharlar va ularning iqtisodiy faoliyatları, kapital va mehnatni o'ziga jalb etish imkoniyati, shuningdek, infratuzilma rivoji hududiy o'sishda muhim determinantlar hisoblanadi.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, zamonaviy iqtisodiy siyosat doirasida kompleks rivojlanish loyihalarini amalga oshirish, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, resurslar samaradorligini oshirish va iqtisodiy integratsiyani ta'minlash orqali hududiy barqarorlikka erishish mumkinligi aniqlandi. Tanlab olingan tuman va shaharlarda yo'lga qo'yilgan tajriba asosidagi rivojlanish yondashuvi mintaqaviy tafovutlarni qisqartirishda ma'lum natijalar berishi mumkin.

Tadqiqotda, shuningdek, transport texnologiyalari, davlat boshqaruvi mexanizmlari va sanoat ixtisoslashuvi kabi institutsional va texnologik omillarning ham o'sish jarayonidagi roli aniqlashtirildi. Natijada, hududiy rivojlanish muvozanatini ta'minlash uchun faqat iqtisodiy resurslar bilan cheklanmasdan, balki ilmiy asoslangan strategik yondashuv, samarali boshqaruv va mahalliy imkoniyatlarning muvofiqlashtirilgan kombinatsiyasi muhim ekanı asoslab berildi.

Ushbu tadqiqot natijalari hududiy siyosatni shakllantirishda nazariy yondashuv va amaliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatib beradi. Shu asosda, kelgusidagi ilmiy izlanishlar hududiy o'sishning institutsional, ijtimoiy va ekologik omillarini ham kengroq qamrab olgan holda tahlil qilinishi lozim.

IV. XULOSA

Ushbu ilmiy maqolada hududiy o'sish masalasiga nazariy va amaliy yondashuvlar asosida yondashildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot va urbanizatsiya nazariyalarini asosida hududiy rivojlanish jarayonining asosiy omillari tahlil qilindi. Jumladan, markaziy joylar nazariyasi, jozibadorlik modeli, aglomeratsiya iqtisodiyoti, transport texnologiyalari ta'siri, mehnat va kapital oqimlari, shuningdek, sanoat ixtisoslashuvi orqali shaharlar va hududlarning o'sish dinamikasi ochib berildi.

Nazariy jihatdan qaralganda, iqtisodiy resurslarning – ayniqsa mehnat va kapitalning – yirik shaharlarga yo'nalishi ushbu hududlarda iqtisodiy faollikni keskin oshirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va xizmatlar sohalarida ko'proq imkoniyatlar yaratib, yirik shaharlarda aglomeratsion ustunliklarni shakllantiradi. Metropoliten markazlarining innovatsion salohiyati, investitsion jozibadorligi va ko'p qirrali ishchi kuchi bozori ularning mintaqaviy iqtisodiyotdagi ustun rolini mustahkamlaydi.

Amaliy nuqtai nazardan, davlat siyosatida hududiy rivojlanishga qaratilgan strategik yondashuvlar ham muhim o'rinn tutmoqda. Jumladan, tanlab olingan tuman va shaharlarda kompleks rivojlanish sxemalarini ishlab chiqish, pilot loyihalar orqali mahalliy iqtisodiy infratuzilmani tiklash, investitsion faollikni rag'batlantirish, hamda ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan yondashuvlar hududiy

siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoxda. Shu bilan birga, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida davlat boshqaruvi, iqtisodiy erkinlik, inson kapitali va institutsional islohotlar orqali hududlararo muvozanatni ta’minlash masalasi ham alohida urg‘u bilan belgilangan.

Mazkur nazariy konsepsiylar va siyosiy amaliyotlar uyg‘unligida shakllanayotgan hududiy rivojlanish modeli nafaqat iqtisodiy markazlar, balki nometropoliten hududlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Aholi va ishlab chiqarish vositalarining fazoviy taqsimoti, transport yo‘llari infratuzilmasi, tashqi investorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, hamda hududiy boshqaruv organlarining faol ishtiroki iqtisodiy o‘sishning hududiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida baholanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hududiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish, zamonaviy nazariyalar asosida baholash va davlat siyosatidagi islohotlar bilan uzviy bog‘lash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan hududiy rivojlanish siyosatini kompleks yondashuvlar asosida shakllantirish, resurslarni optimal taqsimlash va hududlararo tafovutlarni izchil kamaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarori. — 2025-yil 1-aprel. — PQ-132-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. — 2022-yil 28-yanvar. — PF-60-son.
3. Glynn S. Urbanization in Australian History 1788–1900 / Glynn S. — Melbourne: Thomas Nelson, 1975.
4. Goodall B. The Economics of Urban Areas / B. Goodall. — Oxford: Pergamon Press, 1972.
5. Jacobs J. The Economy of Cities / J. Jacobs. — Harmondsworth: Penguin, 1972.
6. Kaldor N. The Case for Regional Policies / N. Kaldor // Scottish Journal of Political Economy. 1970. — Vol. 17. — P. 337–347.
7. Kerr A. Urban Industrial Change in Australia, 1954–1966 / A. Kerr // Economic Record. — 1970. — Vol. 46. — P. 355–367.
8. McCarty J.S. The Nineteenth Century Australian Capitals / J.S. McCarty // Australian Economic History Review. — 1970. — Vol. 10.
9. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions / G. Myrdal. — London: Duckworth, 1957.
10. Richardson H.W. Urban Economics / H.W. Richardson. — Harmondsworth: Penguin, 1971.
11. Richardson H.W. Regional Growth Theory / H.W. Richardson. — New York: John Wiley & Sons, 1973.

12. Stilwell F.J.B. Regional Growth and Structural Adaptation / F.J.B. Stilwell // Urban Studies. — 1969. — Vol. 6.
13. Stilwell F.J.B. Further Thoughts on the Shift-and-Share Approach / F.J.B. Stilwell // Regional Studies. — 1970. — Vol. 4.
14. Stilwell F.J.B. Economic Factors and Urban Growth / F.J.B. Stilwell // In: Burnley I.H. (ed.) Urbanization in Australia. — London: Cambridge University Press, 1974.